

BMT BILAN HAMKORLIK DOIRASIDA O‘ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR VA TEXNOLOGIYALAR ALMASHINUVI

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi

Farxod Djurakulovich Muradov

Annotatsiya Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan ilm-fan va texnologiyalar sohasida olib borayotgan hamkorlik yo‘nalishlari yoritiladi. Xususan, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish, texnologiyalar transferi va innovatsion salohiyatni kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, BMTning turli ixtisoslashgan tashkilotlari orqali ilmiy salohiyatni oshirish, barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish yo‘lida O‘zbekiston tajribasi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, BMT, ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar transferi, innovatsiyalar, hamkorlik, barqaror taraqqiyot, xalqaro tajriba.*

Kirish

Globalashuv sharoitida har bir mamlakatning raqobatbardoshligi, avvalo, ilm-fan va texnologik salohiyatiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash borasida qator islohotlarni amalga oshirdi. Bu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Mazkur maqolada ushbu hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, dasturlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti safiga kirganiga 31 yil to‘ldi. O‘zbekiston 1992 yil 2 mart kuni mazkur nufuzli xalqaro tashkilotga to‘la huquqli a‘zo sifatida qabul qilingan.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan asosiy xalqaro tashkilot bilan hamkorlikka katta ahamiyat qaratadi. Davlatimiz BMT Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa

asosiy xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplarga sodiq bo'lib, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni og'ishmay bajarib kelmoqda.

BMTning teng huquqli va to'laqonli a'zosi sifatida O'zbekiston tenglik, hamkorlik, ko'ptomonlamalik va xalqaro siyosiy tizimni himoya qilish prinsiplariga so'zsiz amal qilishini namoyish etmoqda. So'nggi vaqtlarda xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yangi global qurolli to'qnashuvlarning oldini olish, mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, global muloqot, global harakatlar va butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish kabi g'oyalarni faol ilgari surmoqda.

Mamlakatimiz BMT va uning qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot, Jahon oziq-ovqat tashkiloti, Jahon banki, MAGATE va boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etayotir.

O'zbekistonning BMT huzuridagi doimiy vakolatxonalarini Nyu-York (AQSh), Jeneva (Shveysariya) shaharlaridagi BMT bo'limlari huzurida, boshqa xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonamiz Vena shahridagi (Avstriya) BMT bo'limida faoliyat ko'rsatadi.

Bu nufuzli anjumanlarda davlatimiz rahbari O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalardagi tashabbuslarini e'lon qildi. Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi doirasidagi shiddatli islohotlar tufayli BMT bilan hamkorlik aloqalarimiz darajasi tubdan yuksaldi.

O'zbekistonning keyingi yillardagi sa'y-harakatlarining xalqaro e'tirofi BMT Bosh Assambleyasi qator maxsus rezolyusiyalarining qabul qilinishida namoyon bo'ldi. Jumladan, qisqa davrda: «Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash», «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik», «Barqaror turizm va Markaziy

Osiyoda barqaror taraqqiyot», «Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb eʼlon qilish» boʻyicha rezolyusiyalar qabul qilingani bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida inson huquqlari mamlakatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlarda markaziy oʻrin egallaydi. Binobarin, Oʻzbekiston “BMTning inson manfaatlarini yoʻlida saʼy-harakatga daʼvati” ni qoʻllab-quvvatlaydi.

Oʻzbekistonda inson huquqlari himoyasi BMT bilan hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻriladi. Bugun mamlakatimizda demokratiyaning zamonaviy va inson huquqlari mezonlariga javob beradigan barqaror siyosiy tizimi barpo etilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar va barcha darajadagi sud hokimiyati faol ishlamoqda.

Eng muhimi, jamiyatimizda Konstitutsiyaga va mamlakat qonunlariga hurmat tuygʻusi kuchaymoqda. Yanada eʼtiborlisi: “Inson shaʼni va qadr-qimmatini yoʻlida” ustuvor prinsipi hayotda oʻz tasdigʻini topmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida 2020 yil 13 oktyabr kuni boʻlib oʻtgan saylovlarda Oʻzbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi aʼzolariga uch yil muddatga – 2021-2023 yillarga saylangan. Mamlakatimiz 2021 yil 1 yanvardan boshlab bu boradagi vazifasini bajarib kelmoqda.

Oʻzbekistonning BMT Inson huquqlari boʻyicha kengashi aʼzosi sifatida zimmasiga olgan majburiyatlari doirasidagi faoliyati haqida soʻz yuritganda, xususan, mamlakatimiz 2021 yilda BMT Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilganini alohida qayd etish lozim. Oʻz navbatida, 2022 yil dekabrda “Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti” shafeligida, fuqarolik jamiyatining xotin-qizlar tashkilotlari va “BMT-ayollar” tuzilmasi ishtirokida mintaqaviy forum oʻtkazildi.

Asosiy qism

BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonalarini orqali amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar ilmiy izlanishlarning xalqaro standartlarga mos bo‘lishini ta’minlamoqda. Ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalari qator ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirmoqda. Bu esa ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish imkonini yaratmoqda.

O‘zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashgan tashkilotlari – UNESCO, UNDP, UNECE, UNIDO kabi tuzilmalar bilan faol hamkorlik qilmoqda. UNESCO doirasida ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy almashinuv dasturlari va yosh olimlar uchun grantlar mavjud. UNDP esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda innovatsion loyihalarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining Pandemiya sharoitida yoshlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi rezolyusiyasi qabul qilindi. O‘tgan yil avgustida Toshkentda “Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish” mavzusida Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Shu kunlarda mamlakatimiz delegatsiyasi Jeneva shahrida bo‘lib o‘tayotgan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 52-sessiyasining Yuqori darajadagi segmenti ishida ishtirok etmoqda. Xalqaro hamjamiyat e’tiboriga Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlarni istiqbolda yanada chuqurlashtirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar haqida zarur ma’lumotlar taqdim etildi.

O‘zbekiston BMT va uning ixtisoslashgan institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish istagida ekani e’tirof etildi. Shu ma’noda, BMTning Qiynoqlar bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi E.Edwardsning joriy yilda yurtimizga tashrifini tashkil etish, shuningdek, kelgusida Osiyo qit’asida inson huquqlari bo‘yicha mintaqaviy mexanizm yaratishga ko‘maklashishga oid rejalarni ro‘yobga chiqarish uchun izchil sa’y-harakatlar davom ettirilishi ma’lum qilindi.

Bularning barchasi bejiz emas. Zero, bugungi murakkab sharoitlarda, miqyosiga ko'ra misli ko'rilmagan qurolli ziddiyatlar hamda xalqaro tinchlik va barqarorlikka oshib borayotgan tahdid sahnida tinchlik va xavfsizlikni, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida a'zo davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni maqsad qilgan universal xalqaro tuzilma sifatida BMTning roli va mas'uliyati ortib bormoqda.

BMT dasturlari doirasida O'zbekiston sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va atrof-muhit muhofazasi sohalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Masalan, UNIDO loyihalari orqali toza energiya manbalari, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari joriy qilinmoqda.

Ilm-fan va ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash ham hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biridir. BMTning ta'limga oid dasturlari orqali o'zbekistonlik yosh olimlar xalqaro tajribaga ega bo'lishmoqda.

O'zbekistonning BMT bilan ilm-fan sohasidagi hamkorligi ikki tomonlama manfaatlarni qamrab oladi. Bir tomondan, O'zbekiston o'z ilmiy salohiyatini oshiradi, texnologik rivojlanishni jadallashtiradi. Ikkinchi tomondan, BMT O'zbekiston tajribasi orqali Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror rivojlanish strategiyalarini kengroq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Natijalar

- BMT dasturlari orqali O'zbekistonda bir qator innovatsion loyihalar joriy qilindi;
- Energetika, ekologiya va qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar transferi amalga oshirildi;
- Yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun xalqaro grant va stipendiyalar yaratildi.

Texnologiyalar transferi — bu ilg'or xorijiy texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyoti va ilmiy sohaga joriy etishning muhim bosqichi hisoblanadi. O'zbekiston BMT bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi, energetika, ekologiya,

sogʻliqni saqlash va raqamli texnologiyalar yoʻnalishida zamonaviy yechimlarni tatbiq etmoqda. Ushbu jarayon natijasida ilmiy tadqiqotlarning natijaviyligi oshmoqda, innovatsion muhit shakllanmoqda.

Metodlar

Maqolada tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Xususan, BMTning rasmiy hisobotlari, Oʻzbekiston Respublikasining davlat dasturlari va statistik maʼlumotlar oʻrganildi, ilmiy-analitik taqqoslash amalga oshirildi.

Xulosa

Oʻzbekiston va BMT oʻrtasidagi ilm-fan sohasidagi hamkorlik respublikada innovatsion rivojlanish, ilmiy salohiyatni oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasiga mos keladi va kelajakda yanada kengayib, ilmiy-texnik taraqqiyotga sezilarli hissa qoʻshishi kutilmoqda. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan manfaatli hamkorlik qilishga va BMT hamda uning institutlari bilan amaliy muloqotga hamisha tayyorligi yana bir bor oʻz tasdigʻini topgan. Shu asosda Oʻzbekiston BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashiga aʼzoliigi davrida inson huquqlari sohasida eng yuksak standartlarga sodiqligini namoyon qilishga astoydil intilmoqda. Bu jarayon nafaqat ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirmoqda, balki texnologik modernizatsiya va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajakda ushbu hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish Oʻzbekistonning global ilmiy makonda munosib oʻrin egallashiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. United Nations. Science, Technology and Innovation for Sustainable Development Goals. – New York: UN, 2023. – 152 p.
2. UNESCO. Science Report: Towards 2030. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 794 p.

3. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. – New York: UNDP, 2022. – 398 p.

4. UNIDO. Industrial Development Report 2020: Industrializing in the Digital Age. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2020. – 257 p.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизмати. – Тошкент, 2020. – 15 б.

6. Тожибоев Б. Илм-фан ва инновациялар трансфери: замонавий ёндашувлар. – Тошкент: Фан, 2021. – 210 б.

7. Носирова Д. Ўзбекистонда инновацион сиёсат ва халқаро ҳамкорлик масалалари // Иқтисодиёт ва инновация. – 2022. – №3. – Б. 45–56.

8. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Innovation for Sustainable Development Review of Uzbekistan. – Geneva: United Nations, 2022. – 134 p.